O‘QUV JARAYONIDA KORPORATIV TARMOQ TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Taniberdiyev Akbarjon Abduganiyevich – Guliston davlat universiteti katta o‘qituvchi, (PhD)

XXI asr ta’lim oluvchilari uchun mo‘ljallangan o‘quv jarayonida o‘qitishning zamonaviy shakllari va usullarini qo‘llash, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish, korporativ tarmoq texnologiyalari asosida masofali o‘qitish texnologiyalarini joriy qilish masalalari dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda 2020 yil 23 sentyabrda “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahriri tasdiqlanib, ushbu qonun asosida o‘quv jarayonini tashkil etishning yangi shakllaridan biri masofali ta’limni amalga oshirishga ruxsat berildi. Masofali o‘qitish - axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilmiy asoslangan o‘qitish usullarini qo‘llab ta’lim olish shaklidir. O‘qitishning bu shaklida o‘quvchilarga mos ta’lim predmetini erkin tanlash, o‘qituvchi bilan muloqat qilish sharoitlarini ta’minlaydigan an’anaviy, zamonaviy axborot-telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslanadigan, o‘qitish jarayonida o‘quvchining qaerdaligi va vaqtga bog‘liq bo‘lmagan holda amalga oshiriladi.

Masofali o‘qitishda o‘quv jarayoniga tegishli barcha komponentlar (maqsad, mazmun, metod, tashkiliy shakl, o‘qitish vositalari va hokazo) Internet texnologiyasining texnik va dasturiy vositalari bilan amalga oshiriladi.

Masofali o‘qitishni tashkil qilishda ta’lim xizmatlari samaradorligini oshirishda axborot-metodik ta’minotning o‘rni juda katta. Ta’lim muassasalarida fanlardan axborot-metodik ta’minotni yaratish Internet va Intranet tarmoqlari hamda korporativ tarmoq texnologiyalariga asoslangan bo‘ladi. Bu texnologiyalar asosida korporativ ta’lim portallarini tashkil etiladi.

Korporativ so‘zi korporatsiya so‘ziga mos kelib, lotincha “corporatio” - birlashma, uyushma, hamjamiyat degan ma’nolarni bildiradi. Korporativ tarmoq deganda katta tashkilotning mahalliy tarmog‘i tushuniladi. Korporativ tarmoq ya’ni korxona tarmog‘ida korxonada bajarilayotgan barcha ishlarni avtomatlashtirish jarayoni amalga oshiriladi.

Ta’lim muassasalarida korporativ tarmoq asosida tashkil etilgan ta’lim portalida masofali o‘qitishni tashkil qilishda umumlashtirilgan o‘qitish texnologiyalari va tizimlarini yaratish muhim ahamiyatga ega. Umumlashtirilgan o‘qitish texnologiyalari va tizimlariga ta’lim portalida joylashtirilgan o‘quv dasturlari, rejalar, darsliklar, o‘quv

va metodik qo‘llanmalar, seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarining mazmuni, test tizimlari majmuasini keltirish mumkin.

Korporativ tarmoq asosida tashkil etilgan ta’lim portali masofali ta’lim tizimining rivojlanishiga, shu bilan birga, uning asosiy vositasi hisoblanib, masofali ta’limning tashkiliy-uslubiy va me’yoriyhuquqiy bazasining rivojlanishiga, ta’lim oluvchilar va pedagoglarni mutlaqo yangi vositalar bilan ta’minlashga, pedagogik tadqiqotlarni rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Korporativ tarmoq asosida tashkil etilgan ta’lim portallariga masofali o‘qitish amalga oshiriladigan ta’lim muassasalari o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarish, uning tuzilmalari, moliyaviy-xo‘jalik ishlarini yuritish, o‘quv reja va dasturlar, o‘quv materiallari, testlar va boshqalar haqidagi veb saytlar majmuasi joylashtiriladi.

Masofali o‘qitishni tashkil qilish va uning o‘quvuslubiy ta’minotini yaratish masofali o‘qitishga mo‘ljallangan veb hujjatlar, jumladan ta’limiy saytlar va ta’lim portallarini shakllantirish, strukturasi va mazmunini ishlab chiqishga alohida talablar qo‘yiladi. Korporativ tarmoq asosida tashkil etilgan ta’lim portalining asosiy o‘quv-uslubiy qismi elektron darslikka asoslangan.

Elektron darslik - kompyuter va axborotkommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan o‘quv uslubini qo‘llashga, mustaqil ta’lim olishga hamda fanga oid o‘quv materiallar, ilmiy ma’lumotlarning har tomonlama samarador o‘zlashtirilishiga mo‘ljallangan elektron o‘quv adabiyoti hisoblanadi.

Korporativ tarmoq asosida tashkil etilgan ta’lim portali resurslari masofali o‘qitishning asosiy vositalaridan biri hisoblanib, unga masofali o‘qitishning tashkiliy-uslubiy va me’yoriy-huquqiy bazasi joylashtiriladi. Shuning uchun ta’lim resurslari o‘quvchilar va pedagoglarni mutlaqo yangi o‘quvuslubiy vositalar bilan ta’minlashga xizmat qiladi.

Korporativ tarmoq asosida tashkil etilgan ta’lim portali resurslarini yaratishga umumiy, didaktik, uslubiy, psixologik-pedagogik, texnik-texnologik, estetik, ergonomik va sanitar-gigienik talablar qo‘yiladi. Bu talablar mazmuni quyidagilardan iborat:

Umumiy talablar - ta’lim portali resurslarining tuzilmasi va mazmuni o‘quv dasturiga mos kelishi, o‘qitishda ilmiylik, muammoviylik, ko‘rgazmalilik, onglilik, ta’lim oluvchining mustaqilligi va faolligini ta’minlashi, fan, texnika va texnologiyalarning so‘nggi yutuqlarini hisobga olishi, foydalanishda o‘qitishning tizimliligi va ketma-ketligi, ta’lim oluvchilarning chuqur fikrlash, xotirada saqlash kabi qobiliyatlarini rivojlantirishi, o‘qitishning rivojlantiruvchi va tarbiyaviy funktsiyalarini bajarishi, o‘quv faoliyatining izlash, yig‘ish, saqlash, tahlil, ishlov berish kabi ko‘rinishlarini hamda hisoblashlarni, loyihalash va konstruktsiyalashni, tajriba, eksperimentning natijalariga ishlov berish, nazorat topshirilar, axborotli ishlov berishni avtomatlashtirishni ko‘zda tutishi, murakkab ob’ektlar (mashina, uskuna, apparat,

moslama va x.k.) ishining imitatsiyasini, turli xildagi jarayonlarni real, tezlashtirilgan yoki sekinlashtirilgan vaqt masshtabida o'tish vositalarining tarkibida saqlashi kerak, ularning trening vositalari - ta'lim oluvchini kelajakdagi kasbiy faoliyatiga bog'liq xolda virtual muxitda tayyorlashni amalga oshirish va boshqalar.

Didaktik talablar - moslashuvchanlik, interfaollik, kompyuter vizuallashtirish imkoniyatlari, ta'lim oluvchining intellektual qobiliyatini rivojlantirishi, fikrlash, murakkab vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qila olish mahoratini oshirishi, axborotga ishlov berish bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirishi, o'quv materialini namoyish qilishning tizimlilik va funktsional bog'liqligini, ta'lim berishning to'liqligi va uzluksizligini ta'minlashi hamda muammoli va izlanish topshiriqlarining intellektual o'rgatuvchi tizimiga ega bo'lishi va boshqalar.


Uslubiy talablar - o'quv materialini taqdim etishning tushunchali, obrazli va xarakatli komponentlarining o'zaro bog'liqligiga tayangan xolda yaratilishi, o'quv materialini yuqori tartibli tuzilma ko'rinishida ta'minlashi, fanlararo mantiqiy uzaro bog'liqlik hisobga olinishi, ta'lim oluvchiga o'quv materialini bosqichma-bosqich o'zlashtirish uchun turli xildagi nazoratlarni amalga oshirish imkoniyati yaratilishi, barcha amalga oshiriladigan hisoblashlar vizuallashtirishning ochiq tizimiga ega bo'lishi, o'zgaruvchan ob'ektlar yoki jarayonlarning bog'liqligi namoyish qilinishi va boshqalar.

Psixologik talablar - o'quv materialini namoyish qilish nafaqat verbal, balki kognitiv jarayonning sensorlik va namoyish qilish holatlariga ham mos kelishi, qabul qilish, diqqat, fikrlash, tasavvur qilish, xotirada saqlash kabi psixologik jarayonlar xususiyatlarini hisobga olishi, o'quv materiali mazmunida ta'lim oluvchilarning yoshi, tayanch bilimlari inobatga olinishi, obrazli va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi, o'qitishning ko'rgazmaliligini ta'minlashi, talabalar tomonidan o'rganilayotgan ob'ektlar, ularning maketlari yoki modellarini sezgili, anglangan holda qabul qilishi va shaxsan kuzatishi, hayotiy tajribasini hisobga olish zaruriyatini ko'zda tutishi.

Texnik va texnologik talablar - lokal va boshqa tashqi axborot tashuvchilarda va tarmoqli texnologiyalarida harakatlanishi, multimedia va telekommunikatsiya texnologiyalarining zamonaviy vositalarini maksimal qo'llash imkonini berishi, ishlashda puxtalik va turg'unlilik ta'minlanishi, geterogenligi (elektron resurslar spetsifikatsiyasida ko'zda tutilgan turli xildagi kompyuterli va boshqa shunga o'xshash vositalarda turg'un ishlashi), resurslardan samarali va tug'ri foydalanish imkoniyati yaratilishi va testlashtirilgan bo'lishi.

Estetik, ergonomik va sanitar - gigienik talablar - shrift turi va o'lchovi, fon belgisi va rangi, shrift va fon orasidagi farq satrlar orasidagi masofa, ekranga bezak berish talablari.

O‘quv jarayoni uchun yaratilgan ta’lim portali o‘quv jarayoni mobaynida namoyish etish vositasi, kompyuter sinflarida tashkil etiladigan mustaqil ishlash mashg‘ulotlarida repititor, mustaqil ta’lim olishga vosita, amaliy va laboratoriya ishlarini bajarish mobaynida uslubiy yordamchi, o‘quvchilar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirishini nazoratchisi, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari uchun masala va mashqlar bilan ta’minlovchi ta’lim vositasi hisoblanadi.



1-rasm. Korporativ tarmoq asosida tashkil etilgan ta’lim portali tuzilmasi

Korporativ tarmoq asosida tashkil etilgan ta’lim portali quyidagi imkoniyatlarga ega:
- fan bo‘yicha ta’lim mazmuniga ega bo‘lgan axborot resurslar;
- turli yo‘nalishlar bo‘yicha o‘quv kurslari;
- teskari aloqani ta’minlash;
- kerakli axborotlarni tez topishga yordam berish;
- gipermatnli tushuntirishlarga ko‘p marta murojaat qilishda vaqt hisobini e’tiborga olish;
- ekranga ma’lumotlarni chiqarishda kompyuterning multimediali imkoniyatlaridan foydalanish;
- predmetning har bir bo‘limi bo‘yicha o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajalariga mos holda bilimlarini baholay olish;
- predmetning o‘quv axborot bazalarini yangilash imkoniyatini yaratish va boshqalar.

O‘quv jarayonida korporativ tarmoq asosida tashkil etilgan ta’lim portalidan foydalanishning afzalliklariga quyidagilarni keltirish mumkin:
- ta’lim jarayonida berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o‘zlashtirish;
- ta’lim olishning yangi shakllarini joriy qilish;
- dars jarayonida bilim olish vaqtining qisqarishi natijasida vaqtni tejash imkoniyati;

- olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib qolinishi va uni amaliyotda qo‘llash mumkinligi;
- o‘quvchilarda ma’lum malakalarni shakllantirish vaqti qisqaligi;
- mashg‘ulotlarda bajariladigan topshiriqlar sonining oshishi;
- kompyuter tomonidan faol boshqarishni talab qilinishi natijasida o‘quvchi ta’lim sub’ektiga aylanishi;
- o‘quvchilar kuzatishi, mushohada qilishi qiyin bo‘lgan jarayonlarni modellashtirish hamda bevosita namoyish qilish imkoniyatining hosil bo‘lishi va boshqalar.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020 yil 23 sentyabr
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni
3. Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. T.: Fan. 2009. -146 b.
4. Андреев А.А., Солдаткин В.И. Дистанционное обучение: сущность, технология, организация. – М.: Издательство МЭСИ, 1999. – 196 с.
5. Toshtemirov D.E. Ta’lim portali: yaratish tamoyillari, mazmuni va foydalanish metodikasi. Monografiya. Guliston sh. 2015. - 156 b.
6. Taniberdiev A. O‘quv jarayonida korporativ tarmoq texnologiyalariga asoslangan axborot-metodik ta’minotdan foydalanish. O‘zbekiston milliy universiteti xabarlari, 2022, [1/6], 182-185 b